

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA O‘QUV MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK USULLARI

Rashodova Sharifa Otabek qizi

*Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 32-umumiy
o'rta ta'lim maktabining psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktab o‘quvchilarida o‘quv motivatsiyasini rivojlantirishning zamonaviy psixologik-pedagogik usullari yoritilgan. O‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ta’lim jarayonidagi faolligini kuchaytirishda innovatsion metodlarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, o‘qituvchi, psixolog va ota-onalarning hamkorligi motivatsiyani shakllantirishdagi muhim omil sifatida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘quv motivatsiyasi, psixologik yondashuv, pedagogik metodlar, innovatsion texnologiyalar, rag‘batlantirish, ta’lim jarayoni, o‘quvchi faolligi, mustaqil fikrlash, psixologik yordam, zamonaviy ta’lim.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Motivatsiya — bu insonni ma’lum faoliyatga undovchi ichki kuch va qiziqishdir. O‘quvchining bilim olishga bo‘lgan qiziqishi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning ta’limdagi muvaffaqiyati ham shunchalik samarali bo‘ladi.

Maktab o‘quvchilarida motivatsiyaning pasayishiga turli omillar sabab bo‘lishi mumkin. Darslarning bir xilligi, ortiqcha bosim, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish yoki oilaviy muammolar o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kamaytiradi. Shu sababli zamonaviy pedagogik va psixologik usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion ta’lim metodlari motivatsiyani oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Interaktiv darslar, multimedia texnologiyalari, guruhli ishlash va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini kuchaytiradi. Ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlar va hayotiy misollar orqali o‘qitish o‘quvchilarda bilimga nisbatan qiziqishni oshiradi.

Rag‘batlantirish motivatsiyani rivojlantirishning muhim psixologik usullaridan biridir. O‘quvchining kichik yutuqlarini ham e’tirof etish, maqtov va qo‘llab-

quvvatlash uning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Ijobiy baholash o'quvchining darslarga faol qatnashishiga yordam beradi.

Individual yondashuv ham katta ahamiyatga ega. Har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi va psixologik xususiyatlari turlicha bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olib ishlasa, ta'lim jarayoni samaraliroq kechadi.

Psixologik treninglar va motivatsion suhbatlar o'quvchilarning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Maktab psixologi o'quvchilarda o'ziga ishonch, maqsad qo'yish va muvaffaqiyatga intilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi ham motivatsiyaning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Oiladagi sog'lom psixologik muhit va farzandning muvaffaqiyatiga qiziqish bildirish o'quvchining o'qishga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi.

Zamonaviy ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ham samarali usullardan biridir. Turli intellektual o'yinlar va musobaqalar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Shuningdek, o'quvchilarda kelajak kasbi va maqsadlariga nisbatan aniq tasavvur hosil qilish motivatsiyani kuchaytiradi. O'quvchi o'rganayotgan bilimining hayotdagi ahamiyatini tushunganida, uning ta'limga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgaradi. Ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda mustaqil bilim olishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishdir. Bu jarayonda motivatsiya hal qiluvchi psixologik omil bo'lib xizmat qiladi. Motivatsiya o'quvchining o'quv faoliyatiga yo'naltirilganligini, uning faollik darajasini va qiyinchiliklarni yengib o'tishga bo'lgan tayyorgarligini belgilaydi. Zamonaviy pedagogik psixologiyada o'quvchilarda motivatsiyani oshirish masalasi ta'lim samaradorligini kafolatlovchi eng muhim resurs sifatida qaralmoqda. Maqolada o'quvchilarni o'qishga undovchi psixologik mexanizmlar va ularni amaliyotda qo'llash usullari yoritiladi. O'quv motivatsiyasining asosiy tushunchalari

O'quv motivatsiyasi — o'quvchining o'qish jarayoniga bo'lgan ichki va tashqi intilishlari, ularning o'z maqsadlariga erishishga bo'lgan ishtiyoqi va qiziqishidir. Bu tushuncha asosan ikki asosiy komponentdan iboratdir:

Ichki motivatsiya (intrinsik motivation) - bu o'quvchining o'qishdan o'zaro qoniqish olish, bilim olish jarayonida zavq va qiziqish his qilish bilan bog'liq motivatsiyadir. Ichki motivatsiya o'quvchining o'z-o'zini anglash, o'zini rivojlantirish va o'zining qobiliyatlarini sinab ko'rishga intilishiga asoslanadi

Tashqi motivatsiya (extrinsik motivation) - bu o'quvchining tashqi rag'batlar va mukofotlarga (masalan, yaxshi baholar, ma'naviy yoki moddiy mukofotlar) asoslangan

motivatsiyadir. Tashqi motivatsiya ko‘pincha o‘quvchining ta‘lim muassasasidan kutayotgan tashqi foydalari, mukofotlar va imtiyozlar bilan bog‘liq bo‘ladi

O‘quv motivatsiyasi nazariyalari

O‘quv motivatsiyasini tushuntirishda turli nazariyalar va yondashuvlar mavjud. Ular motivatsiyaning shakllanishi, rivojlanishi va ta‘lim jarayonida qanday namoyon bo‘lishini o‘rganadi.

Psixologik ehtiyojlar nazariyasi (Abraham Maslowning ehtiyojlar piramidasiga asosan): Maslow ehtiyojlar piramidasida o‘quv motivatsiyasi ham ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liqdir. Maslowning nazariyasiga ko‘ra, odamlar ehtiyojlarini qondirishga harakat qilishadi. O‘quvchi uchun, bu dastlab o‘qishdan asosiy ehtiyojlarini (masalan, xavfsizlik, o‘zini anglash va o‘z rivojlanishi) qondirish bilan boshlanadi

Vroomning kutilish nazariyasi (Expectancy Theory): Vroomning nazariyasi shuni ta‘kidlashadiki, o‘quvchilarning motivatsiyasi ularning qanday qilib muvaffaqiyatga erishishlariga bo‘lgan kutilishlariga asoslanadi. Agar o‘quvchi o‘zining sa‘y-harakatlari va muvaffaqiyatlari o‘rtasida aniq bog‘liqlikni sezsa, u motivatsiyasi oshadi

Attribution nazariyasi: O‘quvchilar o‘z muvaffaqiyatlarini yoki muvaffaqiyatsizliklarini qanday talqin qilishiga qarab, ularning motivatsiyasi ham farq qiladi. Agar o‘quvchi muvaffaqiyatni o‘z sa‘y-harakatlari va qobiliyatiga bog‘lasa, bu uning ichki motivatsiyasini oshirishi mumkin. Aksincha, agar muvaffaqiyatni baxt yoki tashqi omillarga bog‘lasa, bu tashqi motivatsiyaga olib keladi

Self-determination nazariyasi (SDT): Edward Deci va Richard Ryan tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariya shuni ta‘kidlashadiki, odamlar o‘z xohishiga ko‘ra, erkinlik va avtonomiya bilan amalga oshirilgan faoliyatlarga yanada ko‘proq jalb qilinadi. O‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish uchun, ular o‘qish jarayonida erkinlik va boshqaruvni his qilishlari zarur.

O‘quv motivatsiyasiga ta‘sir qiluvchi omillar

O‘quv motivatsiyasiga turli omillar ta‘sir qiladi. Bularni quyidagicha guruhlash mumkin:

Shaxsiy omillar: O‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, iqtidori, o‘z-o‘zini anglash darajasi. Masalan, o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi va o‘qishdagi muvaffaqiyatlariga bo‘lgan munosabati motivatsiyaning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi

Ijtimoiy va madaniy omillar: O‘quvchining atrofidagi odamlar (o‘qituvchilar, ota-ona, do‘stlar) va jamiyatdagi ta‘lim tizimi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va tengdoshlardan ko‘rsatilgan rag‘batlar motivatsiyani oshiradi

Ta'lim jarayonining tashkil etilishi: O'quv muhitining rivojlanishi, o'qituvchilarning pedagogik mahorati, o'quv materiallarining qiziqarli va muhim bo'lishi, o'qishning turli shakllari (interaktiv, o'rganishga yo'naltirilgan) ham motivatsiyaning shakllanishida muhim o'rin tutadi

O'quv motivatsiyasini oshirish usullari

O'quv motivatsiyasini oshirish uchun pedagogik jarayonda bir qancha yondashuvlar va usullarni qo'llash mumkin:

Shaxsiylashtirilgan yondashuv: Har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va qiziqishlariga asoslangan ta'lim tizimini yaratish.

Tashqi va ichki motivatsiyani uyg'unlashtirish: O'quvchilarga mukofotlar va rag'batlarni taklif qilish, shu bilan birga, bilim olish jarayonidan zavq olishga undash.

O'quvchilarga erkinlik berish: O'quvchilar o'z o'qishlarini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishi, bu ularning ichki motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

O'qituvchilarning motivatsion qo'llab-quvvatlashi: O'qituvchilar o'z o'quvchilarini rag'batlantirish, ular bilan yaxshi muloqot qilish va ijobiy muhit yaratish orqali motivatsiyani oshirishi mumkin.

O'quv motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy va madaniy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv motivatsiyasini shakllantirishda ijtimoiy va madaniy omillarning ahamiyati katta. Ular o'quvchilarning ta'limdagi ishtiroki va muvaffaqiyatlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Quyida bu omillarni batafsil ko'rib chiqadigan bo'lsak, oila va ota-ona ta'siri o'smirlarning motivatsiyasi shakllanishida oilaning roli juda muhimdir. Oila o'quvchining asosiy ijtimoiy muhiti bo'lib, ularning qiziqishlari va o'rganish istagini shakllantiradi. Ota-ona bilan bo'lgan muloqot, ularning ta'limga bo'lgan e'tibori va qo'llab-quvvatlashi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, o'smirlar o'rtasida oilaning ta'limga bo'lgan munosabati va farzandlariga ko'rsatgan rag'batlari, ularning motivatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi. Qolaversa mahalla va jamoa ta'siri ijtimoiy faoliyatlar, madaniy tadbirlar va jamoaviy ishlar o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Mahalladagi o'zaro aloqalar va jamoa bilan bog'liq tadbirlar o'quvchilarga jamiyatda o'zining o'rnini borligini anglashlariga yordam beradi. Bu esa motivatsiyani kuchaytiradi va o'quvchilarni ta'limga yanada qiziqtiradi. Madaniy qadriyatlar va an'analar ham o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirib, ta'limga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Madaniy tadbirlar, an'anaviy bayramlar va folklor o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ular o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. O'smirlar o'rtasida madaniy qadriyatlarning ta'limga ta'sirini o'rganishda ijtimoiy muhitning roli katta.

Ta'lim muassasasi muhitining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini oladigan bo'lsak, maktabdagi ijtimoiy muhit va o'qituvchilar bilan o'quvchilar o'rtasidagi

munosabatlar motivatsiyaning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. O'quv muhitining qo'llab-quvvatlovchi, ijobiy bo'lishi o'quvchilarning o'zlarini qulay his qilishlariga yordam beradi va bu o'z navbatida ta'limga bo'lgan motivatsiyani oshiradi. O'qituvchilarning motivatsion usullari va sinf ichidagi ijtimoiy aloqalar ham o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatiga katta ta'sir qiladi.

Motivatsiya murakkab tuzilishga ega bo'lib, u asosan ikki turga — ichki va tashqi motivatsiyaga bo'linadi. Ichki motivatsiya o'quvchining bilim olish jarayonidan zavqlanishi, qiziquvchanligi va shaxsiy o'sishga intilishi bilan bog'liq bo'lsa, tashqi motivatsiya baho olish, mukofotlanish yoki jazolanishdan qo'rqish kabi omillar asosida shakllanadi. Psixologik nuqtai nazardan eng barqaror natijani ichki motivatsiya beradi, chunki u bolaning o'z irodasi va qiziqishlariga tayanadi.

O'quvchilarda motivatsiyani oshirishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin elementlari va ijobiy histuyg'ular motivatsiyani kuchaytirsa, o'smirlik davrida ijtimoiy tan olinish va o'zligini namoyon qilish ehtiyoji birinchi o'ringa chiqadi. Pedagog o'quvchiga faqat tayyor ma'lumot beruvchi shaxs emas, balki unda "muvaffaqiyat hissi"ni (success experience) uyg'otuvchi motivator bo'lishi lozim. O'quvchi o'z kuchi bilan qiyin masalani yechganda va buning uchun adolatli e'tirof etilganda, uning miyasida dopamin ajralib chiqadi, bu esa keyingi safar yanada ko'proq harakat qilishga zamin yaratadi.

Zamonaviy ta'limda motivatsiyani pasaytiruvchi omillar sifatida o'quv yuklamasining haddan tashqari ko'pligi, darslarning bir xilligi va o'quvchining shaxsiy fikri inobatga olinmasligini ko'rsatish mumkin. Psixologik treninglar va interaktiv metodlar — "muammoli ta'lim", "loyihaviy o'qitish" kabi usullar o'quvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi. Bunda o'quvchi o'rganayotgan bilimining amaliy ahamiyatini tushunsa, unda o'z-o'zidan o'rganishga bo'lgan motivatsiya darajasi ko'tariladi. O'quvchilar motivatsiyasini oshirish — bu faqatgina o'qituvchining dars berish mahoratiga emas, balki bola psixologiyasini chuqur tushunishga bog'liq jarayondir.

Motivatsiyani shakllantirishda o'quvchining qobiliyatlariga ishonch bildirish, uning yutuqlarini doimiy ravishda rag'batlantirish va ta'lim jarayonini ijodiy yondashuv bilan boyitish lozim. Barkamol avlodni voyaga yetkazishda bolaning ichki intilishlarini to'g'ri yo'naltirish, unda bilim olishni hayotiy ehtiyojga aylantirish ta'lim tizimidagi barcha mutaxassislarning asosiy vazifasi bo'lib qolishi shart.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktab o'quvchilarida o'quv motivatsiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Innovatsion pedagogik texnologiyalar, individual yondashuv, rag'batlantirish va psixologik

qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘qituvchi, psixolog va ota-onalarning hamkorligi esa motivatsiyani shakllantirishning eng samarali yo‘li hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. G‘oziyev E.G‘. Pedagogik psixologiya Toshkent 2011.
2. Nishonova Z.T. O‘quvchi motivatsiyasini shakllantirish metodikasi Toshkent 2014.
3. Leontyev A.N. Faoliyat Onsh Shaxs Moskva 1975.
4. Deci E.L. Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior Plenum Press 1985.
5. Yusupov E. Shaxs kamoloti psixologiyasi Toshkent 2013.
6. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab psixologiyasi Toshkent 1999.